



## O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI HOZIRGINHOLATI, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI

Nurmatova Maftuna Farxod qizi

E-mail: academicaget6767@gmail.com

Samarqand Davlat Universitetni talabasi

Temirova Parvina Tolib qizi

Samarqand Davlat Universitetni talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10816626>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 12-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 14-mart 2024 yil

### KEY WORDS

Kambag'allik ,ijtimoiy guruhlar ,bozor erkinliklari, iqtisodiy jarayonlar, ijtimoiy jarayonlar, davlat funksiyasi.

### ABSTRACT

*Kambag'allik millatning sog'lig'i mehnatga layoqatli va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi shu boisdan ushbu tadqiqot maqsadi, hozirgi davrda jahonda aholining kambag'allikni kelib chiqish sabablari, uning yuzaga kelish omillari va kambag'allikni bartaraf etish usullari, komsepsiyalarini o'rganish, jahonda va O'zbekistonda kambag'allikning kelib chiqishi va bartaraf etilishi haqida ma'lumot to'plash.*

*Kambag'allknii bartaraf etish usullarini ishlab chiqish, buni keng ommaga tadbiq qilish bilan aholini ijtimoiy iqtisodiy himoyasini yaratishdir.*

### KIRISH.

**Mavzuning dolzarbliji:** Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy resurslarning yetishmasligi va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi. Qashshoqlikni qisqartirish yoki uning oldini olish davlat siyosatining muhim maqsadlaridan biridir. Ammo qashshoqlikka qarshi kurashish uchun, avvalambor, uni aniqlash va o'lchanish usullarini qabul qilgan bo'lishimiz kerak. Aholi kambag'alligi hozirgi kunda butun dunyoda dolzarb muommoga aylangan. Bu muommoni hal qilishda nafaqat O'zbekiston Respublikasi , boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar ham keng miqyosda ish olib bormoqda.

**Kambag'allik** – hayot kechirish, mehnat qilish qobiliyatini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lмаган shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Kambag'allik millatning sog'lig'i, mehnatga layoqatli va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi.

Kambag'allknii bartaraf etish usullarini ishlab chiqish, buni keng ommaga tadbiq qilish bilan aholini ijtimoiy iqtisodiy himoyasini yaratishdir. Bozor erkinliklari, institutlari va

mekanizmlarini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy jamiyatda davlat funksiyalarining kengayishi ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning murakkablashishi bilan bog'liq. Hozirgi zamon jamiyatining ko'pgina tub muammolaridan biri bo'lgan kambag'allikni to'lig'icha hal qilib bo'lmaydi. Chunki, har bir davlatning o'ziga xos iqtisodiy salohiyati bor. Rivojlangan davlatlar ham bu muommoni to;lig'icha bartaraf eta olishmaydi. Shuning uchun har bir davlat kambag'allikni yo'qotish uchun o'i tanlagan yo;nalishdan borib ma'lum miqdorda bartaraf etishadi. [1]

Ko'plab mamlakarlarda asosiy muommolardan biri bo'lgan kambag'allikni kelib chiqish sabablari va uni oldini olish yoki kamaytirish usullari ishlab chiqish tizimining shakllanish ahamiyati kurs ishining ob'ekti hisoblanadi. Jahon mamlakarlarining asosiy muommolardan biri bo'lgan kambag'allikni kelib chiqish sabablari va uni oldini olish yoki kamaytirish usullari ishlab chiqish tizimining shakllanish ahamiyati to'g'risida mutaxassis olimlarimiz tomonidan chop etilgan ilmiy va o'quv uslubiy qo'llanmalar, maqolalar, adabiyotlar hisoblanadi.

### **MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI**

Qashshoqlikni o'rganish uchun dastlabki urinishlar minimal iste'mol xarajatlari mezonlarini hisobga olgan holda Charlz But va S.Rovntre tomonidan XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida amalga oshirilgan. XX asr boshlarida birinchi bo'lib Charlz But Londonda qashshoqlik bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qashshoqlik chegarasi g'oyasini ommalashtirdi. Charlz But qashshoqlik chegarasini haftasiga 10 shillingdan 20 shillingga o'rnatdi, bu to'rt yoki besh kishilik oila yashash uchun zarur bo'lgan minimal miqdor edi.<sup>1</sup>[3]

Ingliz sotsiologi Benjamin Seebom Rovntre 1901-yilda oila uchun eng asosiy oziq-ovqat talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste'mol savati yordamida qashshoqlik chegarasini ishlab chiqdi. O'sha davrning etakchi dietolog va tibbiyot mutaxassislarining ma'lumotlariga asoslanib minimal iste'mol savati (kaloriya) uchun eng arzon narxni hisoblab chiqdi va York aholisining 27,84 foizi bu qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydi degan xulosaga keladi.

S.Rovntre qashshoqlikni "birlamchi va ikkilamchi" turlarga ajratadi. Birlamchi qashshoqlik holatini uy xo'jaligining jismoniy samaradorlik uchun zarur deb hisoblagan tovarlarning haftalik savatini sotib ololmasligi, "ikkilamchi qashshoqlik" holati esa uy xo'jaligi yetarlicha daromadga ega bo'lsa-da, ammo sarflashdagi nomuvofiqlik sababli vujudga keladi, deya ta'riflagan. AQShda qashshoqlik chegarasini 60-yillarda M.Orshanski ishlab chiqdi. Qashshoqlikni o'lchashning ushbu usuli uy xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar umumiyligi xarajatlarning doimiy ulushi ekanligini hisobga olishga asoslanadi. Kambag'allik chegarasi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining qiymatini oziq-ovqat xarajatlari umumiy xarajatlar uchun ko'rsatadigan mutanosiblikning teskarisiga ko'paytirish

<sup>1</sup> United Nations (1995), The Copenhagen Declaration and Programme of Action, World Summit for Social Development. 6-12 March 1995, New York, United Nations. Available at <http://www.un.org/esa/socdev/wssd/text-version/> (Accessed 17 January 2017).

orqali belgilanadi. 60-yillarda AQShda bu ulush uchdan birini tashkil qilgan, shuning uchun qashshoqlik chegarasi asosiy oziq-ovqat savatining uch baravariga teng edi. Mutlaq qashshoqlik falsafasi ostida ishlab chiqilgan ushbu yo'nalish ham mutlaq qashshoqliknинг sof o'lchovi talablariga javob bermaydi. Engel qonuniga ko'ra, bu nazariya mamlakatning eng katta iqtisodiy rivojlanishi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlarning umumiylajmidan pasayib ketishi mumkinligi sababli tanqid qilinadi[4]

Dunyo mamlakatlarida qashshoqlikda turmush kechirayotgan aholi soni 1999-yilda 1,7 mld. kishini, 2000-2016 yillar mobaynida xalqaro miqyosda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samarasi o'laroq, kunlik yashash xarajatlari 1,90 AQSh dollaridan oshmaydigan ish bilan band aholi soni o'rta hisobda 28 foizdan 10 foizga qisqardi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlarda 38 foizga teng bo'ldi. Keltirib o'tilgan ma'lumotlar kambag'allikning qaydarajada dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammo ekanligini ko'rsatib turibdi.

Xalqaro miqyosda ijtimoiy yo'nalishda faoliyat olib borayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Taraqqiyot dasturi ekspertlari tomonidan kambag'allik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "*Kambag'allik – bu ijtimoiy guruh yoki individning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan eng minimal ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat hisoblanadi.*"

BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissari boshqarmasi ekspertlari kambag'allik tushunchasiga quyi dagicha ta'rif beriladi: "*Kambag'allik – iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, jumladan, salomatlik, uy-joy, oziq-ovqat va toza ichimlik suviga ega bo'lish va ta'lim olish huquqiga to'sqinlik qiladi yoki uni to'liq cheklaydi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar, jumladan odil sudlovdan foydalanish huquqi, jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish va shaxs xavfsizligi kabilarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.*"<sup>2</sup>

Jahon amaliyotida "kambag'allik" tushunchasining mohiyatini to'liq ochib bera oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlarini o'zida mujassamlovchi yagona yondashuv mavjud emas. Kambag'allikni aniqlash va uni baholash bo'yicha qo'llanilayotgan usul va uslublar bir-biridan tubdan farq qiladi.

Kambag'allikni daromadlar (absolyut miqdorda) yetishmasligi, pul va nomoddiy mezonlar orqali aniqlash mumkin. Natijada kambag'allik miqyosi qaysi usul va uslubiyatdan foydalanilganligiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Iqtisodiy adabiyotda keng tarqalgan kambag'allikka berilgan ta'rif quyidagi ko'rinishda beriladi: "Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda o'rnatilgan va jamiyat tomonidan e'tirof etilgan yashash minimumi darajasidan past bo'lgan daromad va mol-mulkka egalik qilayotgan kishilar kambag'al hisoblanadi. Ular o'zlarining

<sup>2</sup> . BMT ning Milliylik rivojlanish deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambeliyasi 8.09.2000.). <http://www.un.org>.

kambag'alliklari, past daromadga ega bo'lganliklari yoki ishsizliklari kabi vaziyatlar tufayli sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat kabi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Natijada ularning turmush sharoitlari yomonlasha boraveradi". Kambag'allikka berilgan mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ijtimoiy jihatdan aholining muhtoj qatlamlariga ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmatlarning uzlusiz ko'rsatilishi ularga munosib turmush farovonligi ta'minlash imkonini vujudga keltiradi.

Jahon amaliyotida aholi ijtimoiy jihatdan muhtojligiga ko'ra uch guruhga ajratiladi va ushbu guruh vakillari mamlakatlarda maqsadli, tegishli tekshiruvlar asosida ijtimoiy nafaqalarni olish imkonini qo'lga kiritadilar.

*Kambag'allik holatida yashayotgan aholi qatlamlari quyidagi to'qqiz holatdan kamida to'rttasidan mahrum bo'lgan kishilar hisoblanadi:<sup>3</sup>*

- ijara yoki kommunal to'lovlarni to'lash;
- o'z uy-joyini yetarli darajada isitish;
- tasodifiy xarajatlarni qoplash;
- go'sht, baliq yoki ularning o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ikki kunda bir iste'mol qilish;
- uydan tashqarida kamida bir haftalik hordiq chiqarish;
- avtomobil;
- kir yuvish mashinasi;
- rangli televizor;
- uyali aloqa yoki telefon.

### **Tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko'rinishidagi kambag'allik.**

Kambag'allikni tushunishdagi ushbu yondashuv ovqatlanish, boshpana, kiyimkechak, tibbiy yordam va boshqa hayotiy zarur, minimum yashash darajasini ta'minlovchi ne'mat-buyumlarning yetarli darajada sotib olish imkoni yo'qligini ko'zda tutadi. Kambag'allik darajasini aniqlash uchun turmush darajasining eng quyi standartlari ishlab chiqiladi. Misol uchun AQShda har yili federal hukumat kambag'allik chegarasidagi daromadlar miqdorini hisoblab chiqadi va yanvar oyida federal reesterda e'lon qilinadi. 2007-yilda ushbu ko'rsatkich 48 shtat uchun bir shaxsga yiliga 10200 AQSh dollariga teng bo'lgan, to'rt kishidan iborat oila uchun esa yiliga 20650 AQSh dollariga teng bo'lgan. Mazkur miqdordan kam yillik daromadga

<sup>3</sup> Ganiyeva M.X., Latipova N.M., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M. "Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi". O,,quv qo'llanma. Toshkent: 2019 yil.

ega bo'lgan kishi va oilalar o'zi uchun kerakli hayotiy zarur mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun zarur yashash minimumidan mahrum hisoblanadi.

Ushbu standartlar qonun yo'li bilan belgilab qo'yiladigan, aholi asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishning eng kam miqdorini ta'minlaydigan turmush darajasining normativ ko'rsatkichlaridir. Ushbu mezonlar tarkibida "iste'mol savati", tirikchilik o'tkazish uchun minimal iste'mol byudjeti muhim ahamiyatga egadir.

Iste'mol savati minimal iste'mol darajasini ta'minlaydigan 35 turdag'i hayotiy zarur mahsulotlar va xizmatlar to'plamidir. Ularning 11 tasini non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva, go'sht, sut va baliq mahsulotlari, tuxum, shakar va qandolat mahsulotlari, o'simlik yog'i va margarin, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Iste'mol savatiga to'rt nooziq-ovqat mahsulotlarining guruhi va xizmatlarini besh turi kiradi.

Tirikchilik o'tkazish uchun zarur iste'molning minimal miqdori – insonning jismoniy jihatdan takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar majmuasi qiymatidir.

Minimal iste'mol byudjeti – tirikchilik uchun eng kam miqdorga kiradigan, insonning ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqt ni o'tkazish uchun zarur minimal xarajatlar qo'shilgan moddiy ne'matlar va xizmatlar qiymatidir.

Ushbu yondashuv bo'yicha kambag'allik darjasini aniqlanayotganda iste'mol tovarlari bahosi indeksi va inflyatsiya darjasini hisobga olinadi. Turmush darjasini daromad miqdori va baholar darajasiga bevosita bog'liqdir.

**Tengsizlik ko'rinishdagi kambag'allik.** Ushbu yondashuvda kambag'allik daromadlarning tabaqlashuvi bilan aniqlanadi. Bunda kambag'allikk'a jamiyatning turli guruh qatlamlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlik sifatida qaraladi. Daromadlar tengligini ta'minlash va unga erishishning eng qulay usuli bu oilalarni besh guruhga bo'lish, ya'ni o'rtacha shaxsiy daromadning beshdan biriga ega eng kam daromadli oiladan o'rtacha shaxsiy daromadning besh baravariga teng bo'lgan daromadga ega oilalarga bo'lish hisoblanadi. Agar har bir guruh oilaga jami shaxsiy daromadning 20% to'g'ri keladigan bo'lsa, daromadlar tengligiga erishilgan bo'ladi.

Aholi daromadlari taqsimlanishida haddan tashqari keskin tabaqlanish xavfini e'tiborga olib, aholining turli ijtimoiy guruhlari daromadlari taqsimlanishidagi tabaqlashuvni tartibga solishda davlat progressiv soliqqa tortish, mulk va merosga soliq solish bilan birgalikda ijtimoiy to'lov larning samarali tizimlaridan vosita sifatida foydalanmoqda.

**Madaniyat ko'rinishdagi kambag'allik.** Kambag'allikk'a madaniyat ko'rinishda qarashda kambag'allik avloddan avlodga o'tuvchi hayot tarzi sifatida talqin qilinadi. Kambag'allikning mazkur konsepsiysi daromadlarning minimal darjasini bilan birga kelajakka umidsizlik, befarqliq, jamiyatdan begonalashuv, apatiya, rag'bat va o'ziga nisbatan qadr-qimmatning yo'qligi kabi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tarafдорлари

kambag'allikni kamaytirish va jamiyatda vertikal yuqorilash uchun imkoniyatlarni yaratish istiqbolsiz deb hisoblashadi va mavjud imkoniyatlardan kambag'allar foydalanishmaydi degan g'oyani ilgari suradilar.

**Ekspluatatsiya ko'rinishidagi kambag'allik.** Ushbu yondashuvda kambag'allik ijtimoiy ta'minot va yordamning turli guruhdagi insonlarga turlicha berilishida namoyon bo'ladi. Masalan, o'rta sinf vakillariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam ipoteka kreditlari va soliq imtiyozlari ko'rinishida berilsa, yuqori daromadli qatlam vakillari esa soliq imtiyozlari, davlat xaridlari bo'yicha shartnomalar, tadbirkorlik va biznes uchun subsidiyalar ko'rinishida olishadi.

**Tarkibiy ko'rinishdagi kambag'allik.** Ushbu yondashuvga asosan kambag'allikka institutsional va tarkibiy kamsitishlar sabab qilib ko'rsatiladi. Masalan kambag'al hududda joylashgan maktablar boy hududlarda joylashgan maktablarga nisbatan o'z ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun oz miqdorda resurslar olishadi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirmaslik jamiyatni "raqamli bo'linish"iga olib keladi va bu o'z – o'zidan jamiyatda kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan va bo'lмагan aholi guruhlari o'rtasida ijtimoiy tabaqalashuvning chuqurlashuviga olib keladi, ya'ni hozirgi kunda ishchilarning band bo'lishida ushbu yuqori texnologiyalarni bilmagan kishilar ishsiz qoladi va kelajakda kambag'allik muammosiga duch kelishi mumkin.

Mutlaq qashshoqlik rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, butun dunyoda qashshoqlik va tengsizlik mavjud. Mutlaq qashshoqlikning o'lchovga inson biologik mavjud bo'lishi uchun minimal oziq-ovqatni (kuniga 2000-2500 kaloriya) sotib olish uchun zarur bo'ladigan resurs bilan hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining kambag'allikni o'lchash uslubiyotiga binoan, kunlik 2200 kkal.dan kam iste'mol (xarajat) qilgan kishilar – Kambag'al deb hisoblanadi.

Kambag'allik darajasini aniqlashning mutlaq usulida kambag'allik mezoni bir kishi kunlik hayot kechirishi uchun zarur bo'ladigan tovar va xizmatlarning minimal miqdoriga asoslangan holda aniqlanadi. Odatda kunlik minimal miqdor sifatida yashash minimumi olinadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limi, Jahon Banki va Pensilvaniya Universiteti tomonidan 90 yillarda kuniga 1 dollarlik xalqaro qashshoqlik liniyasi (xarid qobiliyati pariteti (PPP) ishlab chiqdi. 1993-yilda xarid qobiliyati pariteti (PPP) qayta ko'rib chiqilganda, kambag'allik chegarasi kuniga bir kishi uchun 1,08 dollarni tashkil qiladi, 2005- yilda kambag'allik chegarasi kuniga bir kishi uchun 1,25 AQSh dollariga ko'tarildi. 2015-yil oktyabr oyida Jahon banki Xalqaro qashshoqlik chegarasini, ya'ni qashshoqlik chegarasi kuniga 1,90 AQSh dollari qilib belgiladi.[7] Jahon Banki tasnifiga ko'ra kuniga 1,90 dollardan kam pul topadigan har qanday odam kambag'aldir. [5]

Kambag'allikning nisbiy o'lchovlari mutlaq qashshoqlik o'lchovlaridan farqli o'laroq, kuzatilgan odamlarning ijtimoiy iqtisodiy muhitini hisobga oladi. Bu odamni kambag'al deb hisoblash uning daromad ulushiga, xuddi shu iqtisodiyotda yashayotgan boshqa odamlarning daromad

ulushiga asoslanadi.[8] Ushbu qashshoqlik g'oyasi tengsizlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

**2. Kambag'allikning nisbiy konsepsiysi.** Nisbiy qashshoqlik kambag'al odamlar va kambag'al bo'limganlar o'rtasidagi tasnif, ushbu mezon, o'rganilayotgan jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq va uni boshqa jamiyatda qo'llash mumkin emas. Masalan, bir mamlakat kambag'al odamlarni yillik daromadi 1000 dollardan kam bo'lganlarning hammasi kambag'al deb hisoblasa, boshqa davlat esa 3000 dollardan kam daromadga ega bo'lgan odamni kambag'al deb tasniflashi mumkin. Ikkinchisi mamlakatda kambag'al hisoblangan odam, agar birinchi mamlakat mezonlaridan foydalanilsa, kambag'al toifasiga kirmaydi.

Zamonaviy sharoitda nisbiy kambag'allik ta'rifi doirasida ikkita yo'nalish mavjud:

1. Hayotni ta'minlashga, asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlarni sotib olish qobiliyatiga qaratilgan. Bunday holda, nisbiy kambag'allik chegarasini qurishda o'rtacha shaxsiy daromaddan foydalaniladi. Qo'shma shtatlarda kambag'allikning nisbiy darajasi o'rtacha daromadning 40 foiziga to'g'ri keladi, aksariyat Yevropa mamlakatlarida - 50 foiz, Skandinaviya mamlakatlarida - 60 foiz.

2. Kambag'allikning fuqarolik-huquqiy nazariyasi deb nomlanib, keng ma'noda mahrum etish yo'li bilan o'lchanadi. Bunday holda, ular mavjud mablag'lar hisobga olingan mahrumliklarning ayrim asosiy to'plamlari asosida jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishga imkon beradimi yoki yo'qligini ko'rib chiqadilar. Nisbatan kambag'allik ko'lami mutlaq kambag'allik o'lchoviga to'g'ri kelmaydi. Mutlaq kambag'allikni yo'q qilish mumkin, ammo tengsizlik tabaqlashtirilgan jamiyatlarning ajralmas atributi bo'lgani sababli nisbiy kambag'allik doimo saqlanib qoladi.

P. Taunsend tomondan ko'p o'lchamli deprivatsiya usuli qo'llanilib, unda moddiy deprivatsiyaga (ovqatlanish, kiyim-kechak, turar joy sharoitlari, uzoq muddat foydalaniladigan ashyolar, yashash joyi muhiti, mehnat sharoitlari va xususiyatlari) ijtimoiy deprivatsiya ko'rsatkichlari (ish bilan bandlik, bo'sh vaqt ni o'tkazish, ta'lim va hokazolar xususiyatlari) qo'shilgan (1-jadval).

*1-jadaval:Nisbiy kambag'allik konsepsiysi*

<b>Nisbiy monetar kambag'allik</b>	<b>Nisbiy-nomonetar (deprivatsiya) kambag'allik</b>
Aholi jon boshiga hisoblangan o'rtacha daromadlar yoki xarajatlarning mediana ko'rsatkichiga mos kelishini baholashga asoslanadi (IHTT, EI va	Jamiyatda amal qilayotgan ehtiyojlar standarti darajasida zarur resurslarning yetishmasligi sifatida aniqlanadi

MDHning ayrim mamlakatlarida qo'llaniladi)	
Nisbiy kambag'allik chegarasi  odatda milliy median daromadning  60%idan pastda belgilanadi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- daromadlarning yetishmasligi</li> <li>- birlamchi hayotiy tovarlar va xizmatlar iste'molining pastligi</li> <li>- sifatsiz ovqatlanish</li> <li>- ta'lim va sog'liqni saqlash izmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi</li> <li>- normal uy-joy sharoitlarining mavjud emasligi va b.</li> </ul>

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha nisbiy kambag'allik ko'lamlari mutlaq kambag'allik ko'lamlariga mos tushmaydi. Tengsizlik jamiyatning ajralmas belgisidir. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarida turmush standartlari ortgan davrda ham nisbiy kambag'allik saqlanib turadi va hatto keskinlashadi.[6]

### **XULOSA**

Kambag`alikni ham keltirib chiqaruvchi omillarning eng birinchisi – ishsizlikdir!

Kambag`alikni bartaraf etishning to`g`ri va eng samarali usili aholi bandligi darajasini oshirish, hisoblaydi olimlar. Odamlar uchun ularga munosib va doramati yuqori ish o'rinalarini yaratish maqsad sari dadil qadamdir. Buning uchun qishloq joylarda tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar, biznis uchun qulay muhit yaratish kerak. Prezidentimiz ta'bri bilan aytganda, kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg`otish, insonning ichki kuch-kuвати va salohiyatini to`liq ro`yobga chiqarish, yangi ish o'rinalini yaratish bo'yicha kompleks iqtosidiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekistonda keying ikki yil ichida ijtimoiy nafaqa olivchilar soni, 1,3 barobar ko`paydi, nafaqalar mig`dori esa 2 barabor oshdi. Bu, albatda, tahsinga sazovar ish. Lekin ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to`lash yoki ular mig`dorini oshirish bilan mavjud mammo to`liq yechimini topgani yo'q.

Shu o'rinda xitoy faylasufi, daosizm ta'limoti asoschisi Lao Szeing hikmatli so`zi yodga tushadi: "och qolgan insonga baliq bersan, uning bir kunlik qornini to`ydirasan. Agar unga qarmoq berib, baliq ovlashga o'rgatsang, uni bir umr ochlikdan qutqarasan". Hozirgi yaponlar esa bu ta'limotni yanada boyitib, qarmoq berishni o'rniga qarmoq yasashni o'gatmoqda.

Yoshlarga ta'lim-tarbiyani, bilimni ham nazariy ham amaliy bilimni kuchaytirish, ularni kasib-hunarga tayyorlash orqali, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, o`z-o`zini band qilish orqali kambag`allikni bartaraf etish mumkun.

Aholini tadbirkorlikka o'rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni davlatini birqalikda barpo etamiz". Toshkent: "O'zbekiston"-2016.
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" . Toshkent: "O'zbekiston"-2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovin yashaylik". ".  
Toshkent: "TASVIR"-2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020.
5. United Nations (1995), The Copenhagen Declaration and Programme of Action, World Summit for Social Development. 6-12 March 1995, New York, United Nations. Available at <http://www.un.org/esa/socdev/wssd/text-version/> (Accessed 17 January 2017).
6. BMT ning Milliylik rivojlanish deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambeliyasi 8.09.2000.). <http://www.un.org>.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining sayti. <http://www.mineconomy.uz>
8. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. Toshkent: «Adolat»-1996 yil,
9. [www.google.ru](http://www.google.ru)
10. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)
11. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
12. [www.xabarlar.uz](http://www.xabarlar.uz)